

рәйиште берген пәрманы; бул пәрманға бойсынуы ишки нызам есапланады [3]. Тилимизде *буйрық* сөзи хәзирги күнде жәмийетлик-сиясий лексикасының курамына мәнилик жактан хызмет етеди. *Буйрық* сөзиниң негизи «буйыр», «буйырыу» фәйиллеринен жасалған болып оның курамындағы *-ық* қосымтасы атлық жасаушы қосымта. Бул қосымта «шақыр» сөзине де қосылып «шақырық» сөзин де жасайды. *Шақырық* сөзи әдебий тилдің хәр түрли қатламларында *буйрық* сөзи сыяқлы түрли мәниге ийе.

Улыўма түркий тиллерине ортақ жәмийетлик-сиясий лексика курамы ғәрезсизлик дәуиринде бир қанша мәнилик өзгерислерге ушырайды. Оларды үйрениўде басқа туўысқан тиллер менен генетикалық жактан салыстырмалы анализлеу максетке муўапық болады.

Қурылтай - сөзи монғол тилиниң (хурул, хурал) сөзинен алынған [4]. Түркий халықлардың айырымларында халық ағзаларының органы, әхмийетли мәмлекетлик мәселелерди шешиў ушын ўәкилли әмелдарлардың жыйналысы, конференциясы мәнисин береді. «Қурылтай» түсиниги XII-XIII әсирлерде кирип келди. Бул Шыңғысханның монғол қәўимлерин бирлестиріўи менен байланысли болды. Қурылтай сөзи бүгинги күнде де лексикамизда сиясий тараўға тийисли жыйын мәнисин билдирип, қолланылмақта.

Хәзирги күнде тилимизде «дағдарыс» сөзи қолланылады хәм «кризис» сөзиниң мәнисин толық береді. *Кризис* - сөзи бирден, тосаттан келип шыққан өзгерис, қыйын аўхал, қыйыншылықтың өсип күшейген шеги, асқынлауын аңлатады [5]. Мысалы: 2018-жылдың жуўмақлары регионның еле де пайдаланылмай атырған потенциалы бар екенлигин көрсетти, басқаша айтканда, бул жерде алдын жойтылып кеткен мүмкиншиликлерди қайта тиклеўде хәм илгери сүриўши тараўларды дүзиўге, шешилиўи тийис мәселелердің шеңбери тек ғана экологиялық дағдарыс пенен шекленип қоймаўға толық шараятлар бар. («ЕҚ», 24.01.2019. №13).

Менишк - жеке мүлк ийесине тийисли мүлк деген мәнилерди билдиреди [6]. Тилимизде «менишк» сөзи «менишклестириў» формасында да қолланылады. Мысалы: Бул актлер мәмлекетлик кәрханалардың хәм

мүлктиң айырым түрлерин мәмлекет ийелигинен шығарыўға және *менишклестириўге* шеклеўлерди белгилейтуғын еди («ЕҚ», 28.02.2006).

Әнжуман - Американың Джордж Маршалл орайы шөлкемлестирген *әнжуманда* жәмийет турмысында ғалаба хабар қураалларының ролин көтеріў мәселелери додаланып атыр («ЕҚ» 25.06.1998. № 75).

Улыўма алғанда, түркий халықларының пайда болып хәм раўажланыўы барысында сиясий-жәмийетлик турмысқа байланысли хәр қыйлы лаўазымларды билдиретуғын, жәмийеттеги социаллық қатламларды аңлататуғын сол жәмийеттиң сиясий турмысына байланысли сөзлер түркий жазба естеликлеринде сақланған. Бундай сөзлердің көпшилигин түркий сөзлер қатламы қурайды. Олардың айырымлары қытай тилинен келип кирген болса (*хан, қаған, будун, бек, туў-байрақ, табғаш-қытай*), айырымлары орта әсирлерде араб-парсы тиллеринен өзлестирілген (*халық, пасбан-қараўыл, шах, патша, мәмлекет, ҳәким, ўәзир*).

Сондай-ақ, жәмийетлик-сиясий лексемалар мәнилик жактан байыды. Мәселен, «институт» сөзи бурын жоқары оқыў орны ямаса илим-изертлеў институтын аңлататуғын болса, соңғы ўақытлары сиясий институтлар, демократиялық институтлар, жәмийетлик институтлар сөз дизбеги курамында қолланылып мәнилик жактан байығаны көринеде. Сөздің семантикалық көлеми оның жәмийетлик мәни алыўы есабынан кеңейиўи жүзеге келди. Мәселен, «тиклениў», «бослық» сөзлери миллий тиклениў, идеологиялық бослық сөз дизбеклеринде қолланып өзине жәмийетлик-сиясий мәни алғанлығын көремиз. Бундай мысалларды көлеп келтире беріўге болады. Мысалы: Россияның Санкт-Петербург қаласында ҒМДАна ағза мәмлекетлердің жоқары билимлендириўге шекемги мәкемелери арасында 1-мәрте өткерилген халықаралық олимпиада да Өзбекстан «Темурбеклер мектеби» оқыўшылары 2-орынды ийеледи. («ЕҚ», 14.01.2020); Усы бағдарда ислеп шығылған «*жол картасы*» тийкарында өткен жылдың өзінде Арқа-батыс әскерий округинде қурылыс хәм реконструкция ислери алып барылды («ЕҚ», 14.01.2020).

Әдебиятлар

1. Бегматов Э. Ўзбек тили тарийхий лексикологияси. –Тошкент: «Фан», 1981. 22-б.
2. Аттухфатуз закиятү филлугатит туркия. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. –Т.: «Фан», 1968. 59-б.
3. Ўзбекистан Миллий энциклопедияси. 2-жилд. -Т.: 2001. 236-б.
4. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. III том. –Нөкис: «Қарақалпақстан». 1988. 103-б.
5. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. II том. –Нөкис: «Қарақалпақстан», 1988. 41-б.
6. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. III том. –Нөкис: «Қарақалпақстан». 1988. 70-б.

РЕЗЮМЕ

Мақолада ижтимоий-сиёсий лексика ўз қатламға тегишли сўзларға, ижтимоий факторларға, давлат тузилишига, ижтимоий шароитларға, тарихий ўзгаришларға боғлиқ ҳолда ўзгариб бориши кўрсатилган. Түркий тилларға хос бўлган сўзларнинг барчаси кардон тиллар учун муштарак бўлган сўзлардир. Шу сабабли улар умум түркий сўзлар қатлами сифатида тахлил этилди.

РЕЗЮМЕ

В статье пополняется круг слов, принадлежащих к слою идентичности в системе социально-политической лексики, в зависимости от социальных факторов в литературном языке, устройства государства, социальных условий, исторических изменений. Известно, что большинство слов, характерных для турецких языков, являются общими или широкими для родных языков. Вероятно, поэтому слова, относящиеся к основному слою, анализировались на основе понятий общетюркской лексики, общетюркского слоя.

SUMMARY

The article expands the circle of words belonging to the layer of identity in the system of socio-political vocabulary, depending on social factors in the literary language, state structure, social conditions, historical changes. It is known that most of the words specific to Turkic languages are common or broad in the native languages. This is probably why the words related to the main layer were analyzed on the basis of the concepts of the common Türkic vocabulary, the common Türkic layer.

INGLIZCHA - O'ZBEKCHA LUG'AT TUZUSH MASALALARI VA ISTIQBOLLAR

Sh.Ruzimov – assistent o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: leksikografiya, jalb qilmoq, ma'nodosh, urg'u, tamoyillar, tanqidiy, takliflar, ishlab chiqmoq, yaxlit tizim, ilmiy.

Ключевые слова: лексикография, ободрять, синоним, ударение, принципы, критически, рекомендации, разрабатывать, целая система, научный.

Key words: lexicography, encourage, synonym, stress, principles, critically, recommendations, work out, whole system, scientific.

Bugungi kunda asosan ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talab kuchli, o'rganishni xohlovchilar talabini qondiruvchi imkoniyatlar ham mavjud. Chet tilini o'rganishda lug'atlar

asosiy o'rin tutadi. Shu kunga qadar lug'atshunoslarimiz tomonidan lug'at tuzish masalasiga katta ahamiyat berilmoqda. Ayniqsa inglizcha-o'zbekcha lug'at tuzishda

U.Isaqov, M. Rahimov, B. Sobirov, S. Temirov, Sh. Isoqov kabi mutaxassislarni ta'kidlash lozim.

Mazkur maqolada yuqorida keltirilgan lug'atshunoslar lug'atining yutuq va kamchiliklari haqida so'z yuritishni maqsad qildik.

Ushbu lug'at umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kolleji, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib 20 000 so'z va fe'lli birikmalarni o'z ichiga olgan.

Lug'at uni tashkil qiluvchi qismlar (mundarija)ni berishdan boshlangan.

Lug'atda bosh so'z alifbo tartibida berilgan va farqlanib turishi uchun qora rang bilan ajratib qo'yilgan. Har bir lug'at maqolachasidan so'ng qiya chiziq (//) ichida uning transkripsiyasi (va urg'usi), keyin turkumni anglatuvchi qisqartma berilgan: **busy** /'bizi/ adj ... [1:11].

Undan so'ng bosh so'z ot turkumiga xos bo'lsa sanaladigan yoki sanalmaydigan ot ekanligini anglatuvchi qisqartma to'rtburchak qavs ([C.U]) ichida bosh harf bilan ko'rsatilgan: **louse** /laus/ n [C] ... [1:221].

Agar bosh so'z fe'l turkumiga xos bo'lsa uning o'timli yoki o'timsizligini anglatuvchi qisqartma to'rtburchak qavs ([T.I]) ichida bosh harf bilan ko'rsatilgan:

agonize (also agonise) /'ægonəz/ v. [I]... [1: 6].

Lug'atda fonetik transkripsiya bosh so'zdan tashqari uning tarkibidagi, u asosida yasalgan so'zlarga ham berilgan. Masalan, sanoq son bosh so'z sifatida berilib, uning tarkibida uning tartib sonidagi shakli ham berib o'tilgan va har biri alohida transkripsiya qilingan: **nineteen** /,naɪn'ti:n/ number o'n to'qqiz (19) ►► for examples of how to use numbers in sentences, look at **six** - **nineteenth** /,naɪn'ti:nθ/ ... [1:301].

Navbatdagi misolda olmosh lug'at maqolasi bo'lib uning tarkibida olmoshning ravishga aylangan shakli ham keltirilib, ularning ham har biri alohida transkripsiya qilingan: **none** /nʌn/ pron hech kim; hech narsa... - **nonetheless** /,nʌn.ðə'les/ (also **none the less**) adv shunga qaramay,... [2:306].

Bosh so'zning qo'shimcha ekvivalenti bor bo'lsa uning transkripsiyasidan so'ng qavs ichida ko'rsatib berilgan: **Afro-Caribbean** /æfrəʊ kærɪbi:ən; US -kə'ribiən/ (also **African-Caribbean**) n. [C] kariblik kishi... [2:5].

Omonimlar bir-biridan yuqorisiga ¹, ² va hokazo raqam yozish bilan farqlangan: **one**¹ /wʌn/ pron, det, n [C] **1**. bir (raqam)... [2:310].

one² /wʌn/ pron **1**. (gapdagi to'ldiruvchini qayta ifodalash uchun qo'llaniladi) **2**. one of -dan biri... [2:310].

So'zlarning eng asosiy ma'nosi oldin, ikkinchi darajali ma'nolari keyin berilgan: **powder** /'paʊdə(r)/ n **1**. [C,U] kukun. **2**. [U] upa. [2: 315].

Ma'nodosh (sinonim) so'zlar berilgan holatda ularning har biri alifbo tartibida o'z o'rnida bosh so'z sifatida berilib, mustaqil ravishda tavsiflangan yoki boshqa sinonimga havola etilgan: **trike** /traik/ n [C] (informal) = TRICYCLE

Quyidagi singari misollar ham uchraydi:

abattoir /'æbətwa:(r); US æbə'twa:(r) n. [C] = SLAUGHTERHOUSE.

Misolda "qushxona" so'zining Britaniya ishlatiladigan inglizcha varianti bosh so'z sifatida berilib, uning Amerikada o'sha so'z o'rnida ishlatiladigan asosiy sinonimiga havola qilingan.

Qo'llanmada qilingan olmoshlarning ham birining ma'nosi boshqasiga havola qilinganini ko'rish mumkin: **someone** /'sʌmwʌn/ pron. = SOMEBODY.

Ba'zan har xil turkumga xos so'zlar ma'nosi quyidagi ko'rinishda bir-biriga havola qilingan: allied ►► ALLY.

Bunda "allied" sifati "ally" otining negizi asosida yasalgan va uning ma'nosi "ally" lug'at maqolasi tarkibida berilgan shuning uchun "allied" sifati ma'nosini bilish uchun "ally" maqolasiga qarash zarur.

Qisqartma (abbreviatura)larning ma'nosi ba'zan

ularning bosh so'z sifatida berilgan to'liq variantiga havola qilingan: **par**² abbr = PARAGRAPH

para¹ = PARATROOPER

para² abbr = PARAGRAPH

Ammo aksariyat hollarda uning to'liq shakli so'z tarjimasidan oldin qavs ichida quyidagicha berilgan: **AA** (abbr. of Automobile Association) n [C] ...

To'liq shakli tarjimadan so'ng quyidagicha berilganiga ham guvoh bo'lishingiz mumkin: **AIDS** (also **Aids**) /eidz/ n. [U] OITS (Oritilgan immunitet tanqisligi sindromi)

►► AIDS is short for **Acquired Immune Deficiency Syndrome**.

Ingliz tilida berilgan ot ko'plikka aylanganda so'z oxiridagi "y" harfi "i" ga aylanadigan so'zlarning ko'plik shakli grammatik xususiyatni anglatuvchi qisqartmadan so'ng qavs ichida ko'rsatib o'tilgan: **ally** /'ælaɪ/ n. [C] (pl **allies**) ittifoqchi,...

anatomy /ə'nætəmi/ n. [C,U] (pl **anatomies**) anatomiya...

O'zakdagi unlini boshqa unli bilan almashtirish orqali ko'plik shakli yasaluvi nostandart otlarning avval bosh so'z sifatida birlik shakli keltirilib maqolaning turkumini va grammatik xususiyatni anglatuvchi qisqartmasidan so'ng qavs ichida transkripsiyasi bilan birga berilgan: **goose** /gu:s/ n (pl **geese** /gi:s/) [C] g'oz. ►► A male goose is called a **gander** and a young goose is a **gosling**.

louse /laus/ n [C] (pl **lice** /lais/) bit.

Bular qatoriga "man, tooth, foot, mouse" so'zlarini ham qo'shsa bo'ladi.

Ko'plikni anglatuvchi -es qo'shimchasi qo'shilganda negizdagi /f/ tovushi /v/ tovushiga aylanuvchi otlarning lug'at maqolasi sifatida birlik shakli berilsa qavs ichida uning ko'plik shakli ham berilgan: **life** /laɪf/ n (pl **lives**) **1**. [U] hayot...

Agar bosh so'z sifatida uning ko'plik shakli berilgan bo'lsa quyidagi ko'rinishda ma'nosi birlik shakliga havola qilingan:

lives pl. of **life**.

Ko'plikni anglatuvchi -es qo'shimchasi qo'shilganda negizdagi /f/ tovushi /v/ tovushiga aylanishi ham, o'zgarishsiz qolishi ham mumkin bo'lgan otlarning har ikkala shakldagi yasalihi berilgan: **scarf** /ska:f/ (pl. **scarfs** /ska:fs/ or **scarves** /ska:vz/) n [C] sharf, bo'yinbog'.

Boshqa tillardan o'zlashgan nostandart otlarning ko'plik shakli ham transkripsiyasi bilan birga turkumni anglatuvchi qisqartmadan so'ng qavs ichida ko'rsatilgan: **analysis** /ə'næləsɪs/ n. (pl. **analyses** /-əsɪz/) **1**. [C,U] analiz,...

antenna /æn'tenə/ n. [C] **1**. (pl. **antennae**) mo'ylab, mo'ylov...

Ingliz tiliga boshqa tillardan o'zlashgan ayrim otlar borki ularning ko'plik shakli ikki xil usulda yasalihi, ushbu ikki xil yasalgan so'z mutlaqo o'zgacha ma'no anglatadi. Lug'atda shunday otlar raqamlar bilan ajratilib, quyidagicha izohlangan:

appendix /ə'pendɪks/ n. [C] **1**. (pl. **appendixes**) appendix, ko'richakning chuvalchangsimon o'sig'i. **2**. (pl. **appendices**) ilova, qo'shimcha.

Faqat ko'plik formada ishlatiladigan otlar turkumni anglatuvchi qisqartmadan so'ng o'rta "[]" qavs ichida "plural" so'zi bilan farqlangan:

tongs /tɒŋz/ n [plural] qisqich.

Sifatni darajalash jarayonida agar sifat undosh bilan tugasa va uning oldida urg'uli qisqa bo'g'in bo'lsa, undosh tovushni ifodalovchi harf ikkita qilib yoziladi. Shunday sifatlarning oddiy darajasi bosh so'z sifatida berilganda, ularning darajalanishi ham turkumni anglatuvchi qisqartmadan so'ng qavs ichida berilgan:

big /bɪg/ adj (**bigger**; **biggest**) **1**. katta...

Nostandart sifatlarning darajalanish kategoriyalari to'liq ko'rsatilgan:

good /ɡʊd/ adj (**better** /'betə(r)/, **best** /best/) **1**. yaxshi...

Ammo ayrim xatolar ham mavjud. Navbatdagi misolda

bu yaqqol ko‘rinadi:

far /fɑː(r)/ adj (**father** or **further**; **farthest** or **furthest**) uzoq, yiroq.

Misolda “far” sifatining qiyosiy darajasi sifatida berilgan “father” so‘zi aslida ot turkumiga xos bo‘lib, “ota” ma‘nosini bildiradi. Bu yerda asli bizga kerakli so‘z “farther”.

Ravishda ham yuqorida “far” sifatida bo‘lgani singari xatoni ko‘rish mumkin: **far** /fɑː(r)/ adv (**father** or **further**; **farthest** or **furthest**) uzoqda

Nostandart fe‘llarning o‘tgan zamon va o‘tgan zamon sifatdosh shakli ham ularning bosh so‘z sifatida berilgan infinitiv (fe‘lning noaniq) shaklidan so‘ng qavs ichida berilgan: **arise** /əˈraɪz/ v [I] (pt **arose**; pp **arisen**) vujudga kelmoq.

Bosh so‘z sifatida inglizcha noto‘g‘ri fe‘lning o‘tgan zamon va o‘tgan zamon sifatdoshi shakllari berilgan bo‘lsa uning ma‘nosi o‘sha fe‘lning infinitiv (fe‘lning noaniq) shakliga havola qilingan: **went** pt of **GO**

gone pp of **GO**

Ayrim ma‘nodosh olmoshlarning farqi, ishlatilish o‘rni tushunarli bo‘lishi uchun lug‘at maqolasi ichida grammatik ma‘lumotlar keltirilgan: **some** /səm; strong form sʌm/ det, pron. 1. bir oz bir qancha, bir miqdor. ►► In negative sentences and in questions we use **any** instead of **some**. But look at 2 for examples of questions where **some** is used. 2. (ijobiy javob umidida berilgan savolda qo‘llaniladi)...

Umuman aytganda, lug‘atda grammatik ma‘lumotlar imkon qadar keng va to‘liq berilgan:

one² /wʌn/ pron 1. (gapdagi to‘ldiruvchini qayta ifodalash uchun qo‘llaniladi) 2. one of -dan biri (bittasi) ►► **One of** is always followed by a plural noun. The verb is singular because the subject is **one**...

Grammatik rod kategoriyalariga e‘tibor yuqori: **goose** /guːs/ n (pl **geese** /giːs/) [C] g‘oz. ►► A male goose is called a **gander** and a young goose is a **gosling**.

Misolda g‘oz so‘zining tarjima sifatida berilishidan tashqari ingliz tilidagi erkak g‘ozga nisbatan ishlatiladigan varianti ham berib o‘tilgan.

Lug‘atda mualliflar variantlilikka juda katta e‘tibor qaratgan. Berilgan lug‘at maqolasining Buyuk Britaniyada ishlatiladigan varianti Amerika variantidan farqli bo‘lsa ular ham quyidagicha berib o‘tilgan: **agonize** (also **agonise**) /ˈæɡənaɪz/ v. [I] uzoq vaqt fikr yuritmoq...

American football (**US football**) n [U] amerikancha futbol...

Bular qatoriga “anaesthetic, analyse, annexe, antagonize” so‘zlarini ham qo‘sha olamiz.

Endi navbat transkripsion variantlilikka: **alimony** /ˈælɪməni; US -məʊni/ n. [U] aliment.

amen /ˈɑːˈmen; US eɪˈmen/ interj amin, omin.

Qo‘llanmadagi ham Amerika, ham Britaniyada ishlatiladigan transkripsion varianti ko‘rsatilgan so‘zlarga “amenity, apparatus, aptitude, arbitrary, harbour” kabi so‘zlarni ham kiritish mumkin.

Lug‘at ayrim transkripsion xatolardan xoli emas. Fonetik transkripsion belgilar orasiga so‘roq “?” belgining aralashib ketishi:

accumulator /əˈkjuːmjʊːleɪtə/ n. [C] akkumulyator, to‘plagich.

affability /ˌæfəˈbɪləti/ n. [U] ...

Belgining tushib qolishi: **adulation** /ˌædʒəˈleɪʃ(ə)n/ n. [U] xushomad. (aslida bu so‘z transkripsiyasi /ˌædʒəˈleɪʃ(ə)n/ shaklida berilishi maqsadga muvofiq).

Belgining tushib qolishidan tashqari, biror belgining o‘rniga boshqasining qo‘llanilishi: **agitation** /ˌdʒɪˈteɪʃn/ n. [U] 1. agitatsiya, tashviqot, targ‘ibot...

Berilgan misoldagi transkripsiyada “æ” belgisi tushirib qoldirilgan, “j” belgisi o‘rnida esa “s” belgisi ishlatilgan. To‘g‘ri variant quyidagicha /ˌædʒɪˈteɪʃn/.

Qo‘llanmadagi “aqualang” so‘zida ham shunga o‘xshash hol.

Lug‘atda ba‘zan alifbo tartibining buzilish holatiga duch kelish mumkin. Misol uchun “drown” so‘zidan keyin “drawsy” va “drudgery” so‘zlari berilgan. Bir qarashda bu so‘zlar ketma-ketligi buzilmaganday ammo “drown” so‘zining uchinchi harfi “o”, “drawsy” so‘zlarining uchinchi harfi “a”, “drudgery” so‘zining uchinchi harfi “u”. Demak ketma-ketlik quyidagicha bo‘lmoqda: o – a – u.

Lug‘at oxirida nostandart otlar, fe‘llar har xil sohalarga aloqador qisqartma (abreviatura)lar, sinonim va antonimlar, ingliz tilidagi ot va sifat turkumiga xos so‘zlarning predloglar bilan ishlatilishi bo‘yicha ro‘yxati, lug‘atda foydalanilgan qisqartma va shartli belgilar ro‘yxati ilova qilingan.

Mazkur maqola kelajakda yaratilajak lug‘atlar sifatini yaxshilashga hissa qo‘shishiga umidvormiz. Lug‘at til o‘rganishda milliy ta‘lim dasturiga mos qilib yaratilsa uning qiymati yuqori bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Isaqov U., Rahimov M., Sobirov B., Temirov S., Isaqov Sh. Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2005.
2. Isaqov U., Rahimov M., Sobirov B., Temirov S., Isaqov Sh. Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2013.

РЕЗЮМЕ

Maqolada lug‘at sistemasining tizimli tadqiq usuli, component tahlil qilish, qiyoslash, tavsiflash, tasniflash usullaridan foydalanilib U. Isaqov, M. Rahimov, B. Sobirov, S. Temirov, Sh. Isaqovlarning inglizcha-o‘zbekcha lug‘ati tuzilishi tamoyillari tanqidiy tahlil qilindi, yutuq va kamchiliklari misollar bilan ko‘rsatilgan holda uni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

РЕЗЮМЕ

В этой статье собраны принципы англо-узбекские словари были исследованы и показаны их преимущества и недостатки с примерами и разработаны практические рекомендации по совершенствованию принципов составления словарей следующего поколения с помощью сравнительно-типологического метода, компонентный анализ и методы классификации.

SUMMARY

In this article compiling principles of U. Isaqov, M. Rahimov, B. Sobirov, S. Temirov, Sh. Isaqov’s English-Uzbek dictionaries were investigated and shown their advantages and disadvantages with examples and practical recommendations for improving compiling principles of the next generation of dictionaries were worked out.

КОМБИНАТОР ТИЛШУНОСЛИК ТУШУНЧАЛАРИНИНГ БАЗАВИЙ ТИЗИМИ

Б.А.Юнусова - ўқитувчи

Самарқанд давлат университети

Таянч сўзлар: когнитив лингвистика, денотатив маъно, коннотатив маъно, дистрибуция, дескриптив тилшунослик, коллокация, коллигация.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, денотативное значение, коннотативное значение, распределение, описательная лингвистика, словосочетание, коллигация.

Key words: cognitive linguistics, denotative meaning, connotative meaning, distribution, descriptive linguistics, collocation, colligation.

Комбинатор тилшунослик фанига Ф. де Соссюр, З.Харрис, Дж.Р.Фёрс, Л.Ельмслева, Л.Теньер, Н.Хомский, Ю.Д.Апресян, В.Г.Гак, А.К.Жолковский,

И.А.Мельчук, А.А.Уфимцева каби хорижий ва рус тилшунос олимларнинг асарлари илмий-назарий, методологик жихатдан асос бўлди. Комбинатор